

O'ZBEKISTONDA XOR SAN'ATINING AHAMIYATI

Shokarimov O'ktamjon Ibragim o'g'li

O'zbekiston davlat konservatoriyasi "Akademik xor dirijyorligi" kafedrasida katta o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7434497>

Annotsiya. O'zbekiston davlat konservatoriyasida 1982 yildan buyon har ikki yilda bir marta bo'ladigan xor jamoalarining festivallari o'ziga hos tarzda, yuqori professional darajada 2 yo'nalishda o'tkaziladi. Unda professional katta xor jamoalari va kichik havaskor xorlar ishtirok etib, o'z mahoratlarini namoyish etadilar. Har bir festivalning o'ziga hos mavzusi, ijro dasturlari avvaldan e'lon qilinib, yoki ma'lum bir kompozitorlar tavalludi bilan bog'langan bo'lib, turli janrlar va uslublardagi asarlar ijro etilishi kelishib olinadi.

Kalit so'zlar: Xor, ijrochilik, xor festivallari, kompozitorlar, xor ijodiyoti.

ЗНАЧЕНИЕ ХОРОВОГО ИСКУССТВА В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация. С 1982 года фестивали хоровых коллективов, проводимые раз в два года в Государственной консерватории Узбекистана, проходят уникально, на высоком профессиональном уровне, по 2-м направлениям. В нем примут участие и продемонстрируют свое мастерство профессиональные большие хоры и малые любительские хоры. Каждый фестиваль имеет свою тематику, программы выступлений объявляются заранее или связаны с рождением тех или иных композиторов, а также оговаривается, что будут исполнены произведения разных жанров и стилей.

Ключевые слова: Хор, исполнительство, хоровые праздники, композиторы, хоровое творчество.

THE SIGNIFICANCE OF CHORAL ART IN UZBEKISTAN

Abstract. Since 1982, the festivals of choirs, held every two years at the State Conservatory of Uzbekistan, are unique, at a high professional level, in 2 directions. Professional large choirs and small amateur choirs will take part in it and demonstrate their skills. Each festival has its own theme, performance programs are announced in advance or are associated with the birth of certain composers, and it is also stipulated that works of different genres and styles will be performed.

Keywords: Choir, performance, choral festivals, composers, choral creativity.

2016 yilda qo'shaloq tavallud nishonlanganligi barchaga ma'lum. Ushbu yilda O'zbekiston kompozitorlik maktabining ilk vakillari - o'zbek hajviy opera janrining asoschisi Sulaymon Yudakov hamda xor uchun a'kapella uslubida kuylash asoschisi Mutavakkil Burhonovlarning 100 yilligiga bag'ishlangan xor festivali uyushtirilishi belgilab qo'yildi. Bu buyuk kompozitorlarimizning xor asarlari ijro etilishi, ijro dasturlarida asosan ularning ijod namunalari bo'lishiga e'tibor qaratildi va o'zaro kelishib olindi. Albatta bulardan tashqari har bir xor jamoasi o'z repertuariga kiritilgan boshqa mualliflarning ham asarlarini ijro etishlari mumkin. Bu bilan jamoalar o'z maxoratlarini yanada kengroq qamrovda ko'rsatib, asosan yangi asarlar ijro etadilar, o'zaro tajriba almashadilar.

Kompozitor Sulaymon Yudakov ijodiga bir nazar tashlasak. Birinchi o'zbek hajviy operasi "Maysaraning ishi"ni yaratib, opera san'atimiz rivojida katta o'zgarishlar bo'lishiga sababchi bo'lganligi musiqashunos olimlarimizning tadqiqotlarida e'tirof etilgan. Sulaymon Yudakovning ijodi nafaqat O'zbekistonda, balki chet elda ham mashhur va ma'lum. U turli janrdagi asarlarning muallifi, qolaversa kantata-oratoriya janrida ham bir qancha asarlar yozib

qoldirgan. S.Yudakovning birinchi kantatasi **“G’alaba”** bo’lib, Turob To’la she’rlariga bastalangan. U 1945 yilda yozilgan bo’lib, Ikkinchi Jahon urushida fashizm ustidan qozinilgan g’alabaga bag’ishlangan. O’sha davrda o’zbek xor musiqasini yaratishda milliy kompozitorlar endigina ilk qadamlarini qo’yayotgan edilar. S.Yudakovning avvalroq yaratgan ayrim asarlarida xor partiyalari yahshi rivojlanmaganligi, diapazonlarining to’g’ri ishlata olinmaganligi tufayli xor honandalari chiranib, aniqrog’i baqiribroq kuylanganlar yoki aksincha noqulay, qiziqarli bo’lmagandek eshitilgan. Ammo kantatada, ayniqsa final xorini olsak professional darajada chiqqanligi tufayli yorqin emostional jo’shqinlik yaratilganligiga ko’p stil bo’lganligiga qaramay hozirda ham sezilib turadi.

G’ofur G’ulom so’zlariga bastalangan **“Mirzacho’l”** vokal-simfonik syuitasi 1950 yilda yaratilgan va o’z paytida yuksak Davlat mukofotiga sazovor bo’lgan. Avvalgi asarlaridagi kamchiliklar, xor partiyalarining nomukammalligi kompozitorning keyingi asarlarida o’z kamchiliklarini to’g’irlashiga sabab bo’ldi. Qisqa vaqt ichida tinglovchilar va tomoshabinlar mehrini qozonishga ulgurgan - **“Mirzacho’l”** syuitasi unga omad keltirgan asarlardan biri bo’ldi. Kompozitor asarlari orasida - **Tojikiston Respublikasining Davlat Madhiyasi** (1944 y.), **“Yorug’ yo’l”** (1951 y.), **“Mening Vatanim”** (1957 y.), **“Zuhraning maktublari”** (1964 y.), **“Muborakbod”** (1972 y.) kantatalarini, **“O’zbekiston”** poema-kantatasini (1973 y.), **“Alyor”** vokal-simfonik poemasini, spektakllarni, **“Furqat”** (1960 y.) kabi bir talay kinofilmlarni, ko’plab kamer-cholg’u va vokal musiqa namunalarini sanab o’tish mumkin.

Jo’rsiz kuylash – xor ijrochiligining yuqori, murakkab shakli hisoblanadi. 1951 yilda O’zbekistonda badiiy jamoa sifatida xor kapellasining tashkil qilinishi o’zbek musiqasidagi yangi janr – **xor uchun jo’rsiz asarlarning** paydo bo’lishiga va uning rivojiga turtki bo’ldi. A’kapella janrining rivojidadagi 1-bosqich halq qo’shiqlarining xor uchun qayta ishlanishidan boshlandi. O’zbek halq qo’shiqlaridan tashqari, Markaziy Osiyo halqlari – tojik, uyg’ur, turkman, qozoq, qirg’iz va qoraqalpoq halq qo’shiqlarini ham qayta ishlash ommaviy tus oldi. Halq og’zaki ijodi professional san’atning asosini tashkil etdi. Halq qo’shiqchiligi kompozitorlarimiz ijodiy izlanishlar yo’nalishlarini yanada boyitdi.

V.A.Uspenskiy: - “O’zbek halqi qo’shiqlarga zarracha bo’lsa-da qayta ishlashda kiritiladigan o’zgartirishlarga astoydil e’tibor beradi. Shuning uchun, avval asarni yaxshilab tinglab, shoshilmay, noziklik va ehtiyotkorlik bilan xor uchun ko’p ovozli musiqa shaklida o’girish kerak”, degan edi. Ilk davrda kompozitorlar halq kuylarini stitata ko’rinishida ishlatganlar. Bu - musiqali drama, komediya va operalarda ko’p qo’llangan. Shu sabab kompozitorlar tomonidan yaratilgan mustaqil qo’shiqlarda ham milliy harakter va o’zgacha kolorit saqlab qolingan.

Mutavakkil Burhonovning ijodida esa a’kapella janriga alohida urg’u berilgan. U asosan Markaziy Osiyo halq qo’shiqlarini jo’rsiz kuylash uchun qayta ishlab, XX asrning 40-yillarida a’kapella janriga asos solgan kompozitorlardandir. Ulardan **“Go’zal qizga”** va **“Yorlarim”** o’zbek halq qo’shiqlari, **“Sari ko’hi baland”** va **“Zarra gul”** tojik halq qo’shiqlari, **“Bibigul”** qoraqalpoq halq qo’shig’i va nihoyat **“Sayra”** uyg’ur halqi qo’shig’i hozirgi kunga qadar xor jamoalarining repertuarlaridan joy olib kelmoqda. O’zbekiston davlat konservatoriyasining **“Xor dirijyorligi”** ta’lim yo’nalishi va mutahassisligiga qabul qilingan talabalar ham o’qish jarayonini aynan shu a’kapellalarni o’rganishdan boshlaydilar.

Ikkita qozoqcha – **“Dudaray”** va **“Ayttim salem qalemqas”**, qoraqalpoqcha **“Adingdan”** (“Ayriliq”) hamda afg’oncha **“CHashmi siyoh”** xalq qo’shiqlarini ham xor uchun

qayta ishlangan. **“Gule gandum”, “Damko’l-damko’l”, “Buxoroi SHarif”** asarlari a’kapella janrida yozilgan. Vokal-xor asarlaridan: **“Gullagan o’lka”, “Baxor qushlari”, “Oda”** (1959 y.), **“Alisher Navoiyga qasida”** (1968 y.), **“Noma’lum soldatga epitafiya”** (1975 y.), **“Abadiy hotira”** (1996 y.) kabi noyob asarlari alohida diqqatga sazovordir. M.Burhonov **“Alisher Navoiy”** operasining muallifi, **“Abu Ali ibn Sino”, “Samolyotlar qo’na olmadi”, “Boy ila hizmatchi”, “Maftuningman”, “Alisher Navoiy”** va boshqa ko’plab kinofilmmlarga yozgan musiqalarida xor lavhalarini keng qo’llagan. Bolalar xorlari uchun ham ko’plab qo’shiqlar yaratdi. **“Kapalak”, “Samolyot”, “Vatan bizga mehribon”, “Baxor qo’shig’i”** va boshqa asarlar shular jumlasidandir. Qolaversa, kompozitor ijodining yorqin namunalardan biri bu – albatta **O’zbekiston Respublikasining Davlat Madhiyasidir.**

Ustoz ijodkorlar ishini davom ettirayotgan bugungi kun kompozitorlarimiz asarlarida ham Vatanparvarlik ruhi, millatlararo hamjihatlik, haqiqiy buzilmas do’sstlikni tarannum etish - boshqa halqlar musiqa san’atiga hurmatda, qiziqishda yaqqol namoyon bo’lmoqda. Yuksak ijod namunalari bo’lishga dahldor barcha asarlar keyingi avlodlarga qolishiga hech shubha yo’q.

REFERENCES

1. “Bolalar musiqa va san’at maktablarining moddiy va texnik ba’zasini yaxshilash bo’yicha 2009-2014 –yillarga mo’ljallangan Davlat dasturi to’g’risida” gi Prezident qarori. Toshkent .2008.
2. B.V.Shomaxmudova. “Xor lug’ati” Toshkent. 2009.
3. N.S.Sharafiyeva . “Xorshunoslik”. Toshkent. 1987.
4. N.O.Baxritdinova. “O’zbekistonda bolalar xor madaniyati” Toshkent .2002.
5. Begmatov S, Mamirov Q, Mansurov A, Karimova D, Ro’ziyev I. 6-sinf uchun darslik. G’afur G’ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti. Toshkent 2001 yil.
6. Shokarimov, U. (2022). KOMPOZITOR BOLALARGA. *Science and innovation, 1(C7)*, 315-317.
7. Shokarimov, U. (2022). O ‘ZBEKISTONDA XOR SAN’ATINING DAVRIY BOSQICHLARI. *Science and innovation, 1(C7)*, 310-314.
8. Shokarimov, U. (2022). O ‘ZBEKISTON KOMPOZITORLARI IJODIDA BOLALAR QO ‘SHIQLARI. *Science and innovation, 1(C7)*, 322-327
9. Shokarimov, U. (2022). O ‘ZBEKISTONDA XOR SAN’ATINING RIVOJLANISHI. *Science and innovation, 1(C7)*, 307-309.
10. Shokarimov, U. (2022). “AVESTO” KITOBIDA XOR IJROCHILIGIGA OID AYRIM MA’LUMOTLAR. *Science and innovation, 1(C7)*, 318-321.